

Nigina Baxronova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini
tashkil qilish bo'limi muhandisi
E-mail:niginabaxronova1812@gmail.com*

OILADA KITOBXONLIKNI TARG'IB QILISH ORQALI MA'NAVIY BARKAMOLLIKKA ERISHISH DAVR TALABI

***Annotatsiya.** Oilada kitobxonlikni targ'ib qilish ma'naviy barkamollikka erishishning muhim omilidir, chunki kitob o'qish oilada farzandni to'g'ri va ongli tarbiyalashning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Kitob o'qishga bo'lgan muhabbat yosh avlodni ma'naviy jihatdan shakllantiradi, ularning aql-zakovatini o'stirib, dunyoqarashini kengaytiradi va insoniy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** kitobxonlik, mutolaa madaniyati, kitob, oila, ota-ona, farzand.*

ACHIEVING SPIRITUAL PERFECTION THROUGH PROMOTING LITERACY IN THE FAMILY IS THE NEED OF THE TIME

***Abstract.** Promoting reading in the family is an important factor in achieving spiritual maturity, because reading books serves as a solid foundation for proper and conscious upbringing of children in the family. Love for reading books spiritually shapes the younger generation, increases their intellect, broadens their worldview, and contributes to the formation of human qualities.*

***Keywords:** reading, reading culture, book, family, parents, child.*

Hozirgi kunda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyati susayib, yot g'oyalarga ta'sirchanligi ortayotganligi sababli, kitobxonlikka bo'lgan talab, unga qiziqish yo'qolib bormoqda. To'g'ri, kutubxonalarga kirganimizda o'quv zallarining kitobxonlar bilan to'la ekanligini ko'ramiz. Aslida o'sha yerda o'tirgan hamma ham mutolaani sevuvchi, ko'proq ilm olishga harakat qiluvchi haqiqiy kitobxonlarmi? Yo'q, hammasi ham emas. Kutubxona tinch va sokin maskan bo'lganligi uchun ham kiradiganlar bor. Mutolaaga bo'lgan qiziqishni bolada oilada shakllantirib borish

kerak. Ota-onalar: “Farzandim tinch o'tirsin”, – deb qo'llariga telefonni berib qo'yishadi. Telefon bolaga ham ma'nan, ham jismonan zarardir. Telefonda ko'rayotgan videolari va o'ynaydigan o'yinlarning hammasi ham bolaning ma'naviyatiga foydali emas. Telefonga mukkasidan ketib qarash bolaning sog'lig'i va ko'zlariga zarardir. Bolaning butun kuni telefon o'ynash bo'lib qolgandan keyin ota-onalar shikoyat qilishadi. Bolaning telefonga mukkasidan ketishiga o'zlari sababchi bo'lganlarini o'ylab ham ko'rishmaydi. Bolaga talab qo'yishni ham bilishadi. Bolaga “Unday bo'lishing, bunday bo'lishing kerak”, – deb talab qilishdan oldin, ota-onalar ularga shu narsalarni o'zlarida ko'rsatib berishlari kerak emasmi, aslida. Xalqimizda: “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, – degan naql bejizga aytilmagan. O'sib kelayotgan bolaga asosiy tarbiya oiladan, ota-onasidan, bobobuvisidan o'tadi. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgudir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Oilada o'zidan kattalarning kitobga mehrini ko'rib ulg'aygan bola kitobxon bo'lib voyaga yetadi.



Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'lagi ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin. Oila

davrasida bilim olish va kitob o'qish borasida suhbat qilish, farzandining ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o'z vaqtini telefon bilan o'tkazishi keng tus olyapti. Bunda me'yordan oshib ketish holatlari ko'p uchramoqda. Farzandni kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o'qishga ko'nikma hosil bo'ladi. Bilim olishga bo'lgan intilish yanada kuchayadi.

Masalan maktab o'quvchilarini oladigan bo'lsak, nima uchun ular savollariga javobni kitob o'qib, o'zi izlanib topish o'rniga ijtimoiy tarmoqlar orqali topishadi. Bunga biz kattalar aybdormiz. Bolani yoshligida tinchlanish uchun o'zimiz telefonga o'rgatib qo'yganmiz. Bola qiyin yo'lni emas, oson yo'lni tanlaydigan bo'lib qoladi. Bola har bitta narsani bilgisi, qiziqqan savoliga javob olgisi keladi.



Bu savollarga javobni ota-ona beradi-ku. Ota-onalar farzandining har bir savoliga javob berishi uchun, o'zlari yetarlicha bilimga ega bo'lishi lozim. Buning uchun esa, ko'proq mutolaa bilan shug'ullanmog'i darkor.

Oldinlari bolani uxlatish uchun alla, ertaklar aytishardi. Hozirgi kunda kim bolasiga ertak aytadi? Axir, ertak bolalarning tasavvurini kengaytiruvchi, ularning tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita emasmi? Bolaga ertak aytishga bo'lgan qarash – bu faqatgina vaqt o'tkazish vositasi emas, balki bolaning ruhiy, aqliy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan tarbiyaviy jarayondir. Ertakda bo'layotgan voqealar, qahramonliklar, sarguzashtlar hayotiy jarayonlarga to'g'ri kelmasligi mumkin. Ammo, ertaklar orqali bola yaxshi va yomonlikni

farqlaydi, qahramonlikni, adolatni o'rganadi hamda yangi so'z boyligini oshirib, ravon nutqni shakllantiradi. Ota-ona va bola o'rtasidagi yaqinlikni ham mustahkamlaydi. Bolaga ertak aytish – bu mehrga to'la muloqot shakli. Bola o'zini e'tibor markazida sezadi, ota-onasiga bo'lgan ishonch hissini kuchaytiradi.

Rivojlangan davlatlar – AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya misolida olib qaraydigan bo'lsak, ularda kitobxonlik madaniyati yuqoridir. Kitob o'qish bu davlatlarda kundalik hayotning bir qismi hisoblanadi. Masalan, yurtimizda “Yosh kitobxon”, “Eng faol kitobxon” kabi tanlovlar o'tkazilmoqda. Bu yoshlar, talabalar va o'quvchilar o'rtasida badiiy adabiyotga bo'lgan qizishni orttirmoqda. Ammo, kitob o'qish madaniyati hali ham keng ommaga chuqur singib bormagan. Sababi, ayrim hududlarda zamonaviy kutubxona va kitob do'konlari yetarli darajada emas. Kitob o'qishga ajratiladigan vaqt ham kam darajada. Chunki, internet va ijtimoiy tarmoqlar kitob o'qishga ajratiladigan vaqtni kamaytiradi. Masalan, Respublika bolalar kutubxonasiga e'tibor qaratsak, u yerda 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga kitob olamiga kirish, kattalarga esa o'zining loyihalari ustida ishlash imkoni bor. Boshqa hududlarda ham shunday zamonaviy kutubxonalarni ko'paytirsak, bolalarda va kattalarda kitobga bo'lgan qiziqish ortadi.



Inson mutolaa qilar ekan, uning dunyoqarashi, insonlar o'rtasidagi muloqoti, farzandlariga beradigan tarbiyasida katta ta'sir qiladi. Ulug'larimiz bekorga: “Kitob insonning do'sti”, – deb aytishmagan. Har bir inson o'z uyida kutubxonasi bo'lishi, har kun mutolaa uchun vaqt ajratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta,

muvaffaqiyatga erishadi. Oila a'zolarimizning tug'ilgan kunlari bo'lsa, ularga albatta, sovg'a olamiz. Har bir inson sharoitidan, vaziyatidan kelib chiqib sovg'a oladi. Nima uchun kitob sovg'a qilmaymiz? Kitob inson uchun eng bebaho va qimmatli sovg'a emasmi? Ziyoli qatlam orasida kitobga bo'lgan talab va ehtiyoj kuchli. Oddiy xalq, tadbirkorlar orasida kitobga ehtiyoj nima uchun sezilmaydi? Oddiy xalq nazarida bolaga: "O'qib ham olim bo'larmiding, undan ko'ra falonchining bolasiga o'xshasang bo'lmaydimi?", – deb tanbeh berishadi. Natijada, bolaning umidlari so'nadi, dunyoqarashi o'zgaradi. Ota-onasi xohlaganday tadbirkor yoki katta biznesmen bo'lib yetishadi. Ammo, uning bolaligidagi orzusi so'nmaydi. Bu orzuni, kitobga bo'lgan, o'qishga bo'lgan muhabbatni farzandlarida shakllantirishga harakat qiladi.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy 7 yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini yoddan bilganlar, 10-12-yoshlaridan ijod qila boshlagan. Yosh bo'lishiga qaramasdan ilmi, zehni bo'lib ulg'ayishiga sabab – oiladagi muhit, bevosita ota-onaning tarbiyasidir.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus-nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa, muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Kitob inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun ham kitobxonlik madaniyatini oiladan boshlash eng to'g'ri va samarali yo'ldir. Kitobxonlikni oilada targ'ib qilish – yosh avlodni intellektual va ma'naviy jihatdan

yetuk qilib tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biridir. Har bir oila bu borada mas'uliyatni chuqur his etib, kitobga mehr va e'tiborni hayot tarziga aylantirishi zarur.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://scientsts.uz>
2. <https://in-academy.uz>

